S.V. Yegert (2022)	Inson kapitali - bu iqtisodiyotda ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan va mehnat resurslarining sifatini belgilaydigan bilim, ko'nikma va tajriba zaxirasidir ¹⁰ .
V. Strelkovskiy va hammualliflar (2023)	Inson kapitali - bu insonlarda shakllanadigan bilim, kasbiy malaka va ijtimoiy kompetensiyalar majmuasi bo'lib, ular iqtisodiy tizimda innovasion va barqaror rivojlanishni ta'minlaydi ¹¹ .
Xorijiy tashkilotlar tomonidan berilgan ta'riflar	
OECD (Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti)	Inson kapitali - bu insonlarda mujassam bo'lgan bilimlar, malaka va shaxsiy xususiyatlar zaxirasi bo'lib, ular ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatda mahsuldorlikni ta'minlaydi ¹² .
BMT (UNDP) inson rivojlanishi hisoboti	Inson kapitali – bu iqtisodiy o'sishning asosiy omili bo'lib, u ta'lim, sog'liq va ko'nikmalar orqali shakllanadigan inson salohiyatini ifodalaydi va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi ¹³ .
Jahon banki (World Bank)	Inson kapitali - insonlar hayoti davomida to'playdigan bilim, ko'nikma va sog'liq majmuasi bo'lib, ularga jamiyatning samarali va ishlab chiqaruvchi a'zolari sifatida o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkonini beradi ¹⁴ .

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada kuzatuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tizimli tahlil, taqqoslash va iqtisodiy sharhlash usullaridan foydalanilgan.

6 <https://arxiv.org/abs/2409.18638>

7 <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0883035524000752>

8 <https://doi.org/10.1111/irfi.12372>

9 <https://arxiv.org/abs/2312.06450>

10 OECD Ecoscope Blog (2024) <https://oecdscopescope.blog/category/human-capital>

11 <https://arxiv.org/abs/2312.06450>

12 <https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/human-capital-and-educational-policies.html>

13 <https://hdr.undp.org>

14 <https://www.worldbank.org/en/publication/human-capital>



TAHLIL VA NATIJALAR

Inson kapitali (Human Capital) — iqtisodiy, ijtimoiy va oilaviy rivojlanishning asosiy ishlab chiqaruvchi omili bo'lib, u insonning intellektual salohiyati, yashash va mehnat muhiti hamda mehnat faoliyati orqali shakllanadi. Inson kapitali jamiyatda iqtisodiy qiymat yaratish qobiliyatiga ega bo'lgan inson resurslarining sifat jihatdan ifodasini aks ettiradi¹⁵.

Inson kapitali tarkibiga quyidagi asosiy elementlar kiradi:

- aql-zakovat va intellektual salohiyat;
- bilim, tajriba va kasbiy kompetensiyalar;
- jismoniy va ruhiy salomatlik;
- mehnat qobiliyati va quvvati;
- ijtimoiy faollik va hayot sifati.

Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, inson kapitali faqat shaxsiy xususiyatlar yig'indisi emas, balki insonning jamiyatda samarali mehnat qilishi, innovatsiya yaratishi va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishini ta'minlovchi strategik resurs hisoblanadi¹⁶.

Inson kapitali quyidagi darajalarda shakllanadi va baholanadi:

- individual darajada inson kapitali — alohida shaxsning bilimi, salomatligi, kasbiy mahorati va mehnat qobiliyati;
- kompaniya (tashkilot) inson kapitali — korxonada jamlangan xodimlarning umumiy bilim, ko'nikma, tajriba va korporativ madaniyat salohiyati;
- milliy inson kapitali — mamlakat aholisining umumiy bilim darajasi, salomatligi holati, mehnat unumdorligi va ijtimoiy faolligi yig'indisi.

Milliy inson kapitali — mamlakat milliy boyligining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, aholining bilim, sog'liq va mehnat salohiyati orqali ifodalanadi. Jahon bankining zamonaviy baholashlariga ko'ra, global miqyosda milliy boyluk tarkibida inson kapitali o'rtacha 64 foizni tashkil etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylukdagi ulushi 70–80 foiz atrofida saqlanib qolmoqda, bu esa iqtisodiy o'sishda bilim va salomatlikka asoslangan model ustunligini ko'rsatadi¹⁷.

Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyaga muvofiq, turli mamlakatlarning milliy inson kapitali qiymati davlat, oilalar va xususiy sektor tomonidan ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va mehnat bozoriga sarflangan xarajatlar asosida hisoblanadi. Ushbu yondashuv jamiyatda inson kapitalini takror ishlab chiqarish uchun yillik sarflanayotgan umumiy xarajatlarni baholashga imkon beradi.

XXI asr boshlariga kelib (yangilangan baholashlar asosida), ayrim mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylukdagi ulushi quyidagicha shakllangan: AQSH — inson kapitali milliy boylukning taxminan 76–78 % ini tashkil etadi; Xitoyda — 65–70 % atrofida, Hindistonda — 55–60%, Rossiyada — 50–55% atrofida.¹⁸

Jahon inson kapitali zaxirasining katta qismi aynan rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi, chunki bu mamlakatlarda ta'lim, sog'liqni saqlash va inson rivojlanishiga yo'naltirilgan investisiyalar yuqori darajada amalga oshiriladi.

Inson kapitalini iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan quyidagicha tasniflash mumkin:

- ijobiy (ijodiy) inson kapitali — innovatsiya yaratadigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan kapital;
- salbiy inson kapitali — jamiyatda ijtimoiy muammolar, ishsizlik, korrupsiya yoki samarasiz boshqaruvni kuchaytiruvchi kapital;
- passiv inson kapitali — mavjud bo'lsa-da, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga yetarlicha jalb etilmagan inson resursi.

Zamonaviy iqtisodiy siyosatning asosiy vazifalaridan biri — inson kapitalini passiv yoki salbiy holatdan ijobiy va ijodiy shaklga o'tkazish hisoblanadi¹⁹.

Yuqorida keltirilgan inson kapitali tarkibiy elementlarini umumlashtirilgan va tizimlashtirilgan holda o'rganish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki inson kapitali tarkibiga kiruvchi aql-zakovat, bilim, salomatlik, mehnat qobiliyati va hayot sifati o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularning har biri boshqasining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan inson kapitalini uchta asosiy tashkil etuvchiga ajratib tadqiq etish ilmiy va o'quv adabiyotlarda keng tarqalgan

15 Шульц Т. Инвестиции в человеческий капитал. - М.: Экономика, 1971. - 272 с.; Беккер Г. Человеческий капитал: теоретический и эмпирический анализ. - М.: Изд-во ГУ ВШЭ, 2003. — 336 с.

16 Qodirov T.U. Inson resurslarini boshqarish. Darslik.// T.U. Qodirov. — T.: "Dimal", 2025. -572 bet.

17 World Bank. The Changing Wealth of Nations 2021: Managing Assets for the Future. -Washington, DC: World Bank, 2021.; World Bank. Human Capital Project: Measuring Human Capital Index. -Washington, DC, 2023.

18 World Bank. The Changing Wealth of Nations 2021: Managing Assets for the Future. - Washington, DC: World Bank, 2021.; World Bank. Human Capital Project: Measuring Human Capital Index. - Washington, DC, 2023.

19 World Bank. The Changing Wealth of Nations 2021: Managing Assets for the Future. - Washington, DC: World Bank, 2021.



Birinchidan, inson kapitalining professional tashkil etuvchisiga aql-zakovat va intellektual salohiyat, bilim, tajriba hamda kasbiy kompetensiyalar kiradi. Ushbu elementlar insonning mehnat bozorida qiymatini, innovasion faolligini va qaror qabul qilish salohiyatini belgilaydi. Professional kapital insonning bilim va ko'nikmalari orqali iqtisodiy qiymat yaratish qobiliyatini ifodalaydi va mehnat unumdorligini oshirishda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Ikkinchidan, inson kapitalining salomatlik tashkil etuvchisi jismoniy va ruhiy salomatlik, mehnat qobiliyati hamda insonning quvvat va energiya zaxiralarini qamrab oladi. Salomatlik kapitali insonning uzoq muddatli mehnat faoliyatini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanib, uning ish unumdorligi, barqarorligi va stresslarga chidamliligiga ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy va ruhiy salomatlik yetarli darajada ta'minlanmagan holatda yuqori bilim va kasbiy kompetensiyalar ham kutilgan iqtisodiy samarani bermaydi.

Uchinchidan, inson kapitalining madaniy-ijtimoiy tashkil etuvchisi ijtimoiy faollik, hayot sifati, qadriyatlar tizimi va insonning jamiyatdagi munosabatlariga bog'liq bo'lgan omillarni o'z ichiga oladi. Mazkur tashkil etuvchi insonning mehnatga munosabati, jamoada ishlash qobiliyati, korporativ madaniyatga moslashuvi hamda ijtimoiy mas'uliyatini belgilaydi. Aynan madaniy-ijtimoiy tashkil etuvchi inson kapitalining professional va salomatlik komponentlarini o'zaro uyg'unlashtirib, ularning sinergetik samarasini ta'minlaydi.

Shunday qilib, inson kapitali tarkibidagi barcha elementlarni umumlashtirgan holda, uni professional kapital, salomatlik kapitali va madaniy-ijtimoiy kapital kabi uchta muhim tashkil etuvchiga ajratib o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan zarur hisoblanadi. Bunday yondashuv inson kapitalini kompleks baholash, uni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va iqtisodiy hamda ijtimoiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Yaxlit tizim sifatida professional kapital, salomatlik kapitali va madaniy-ijtimoiy kapital bir-birini to'ldiruvchi hamda o'zaro kuchaytiruvchi elementlar hisoblanadi. Ushbu kapitallardan birortasining zaifligi qolgan ikkitasining samaradorligini ham pasaytiradi.

Professional kapital (bilim, tajriba, kasbiy kompetensiyalar, intellektual salohiyat) insonning iqtisodiy qiymat yaratish qobiliyatini belgilaydi. Biroq u faqat sog'lom insonda va qulay ma'naviy-ijtimoiy muhitda to'liq namoyon bo'ladi. Ya'ni salomatlik kapitali professional kapitalning amaliy qo'llanilishi uchun fiziologik va psixologik asos yaratadi.

Salomatlik kapitali (jismoniy va ruhiy sog'liq, mehnat qobiliyati) professional bilim va ko'nikmalarni uzoq muddat davomida samarali qo'llash imkonini beradi. Biroq salomatlik kapitali ham o'z-o'zidan barqaror emas: stress, nosog'lom korporativ muhit, adolatsiz munosabatlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi uni tez yemirishi mumkin.

Aynan shu nuqtada madaniy-ijtimoiy kapital hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Madaniy-ijtimoiy kapital (qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, ijtimoiy faollik, korporativ madaniyat, hayot sifati) insonning mehnatga munosabatini, jamoada ishlash qobiliyatini va ichki motivatsiyasini belgilaydi. U professional kapitalni to'g'ri yo'naltiradi, salomatlik kapitalini asraydi va tiklaydi, hamda ular o'rtasida sinergetik samarani ta'minlaydi.

Shu bois madaniy-ijtimoiy kapital birinchi ikki tashkil etuvchiga nisbatan integrativ va tartibga soluvchi funksiyani bajaradi:

- professional kapitalni ijodiy va innovasion faoliyatga yo'naltiradi;
- salomatlik kapitaliga ijobiy ta'sir ko'rsatib, stressni kamaytiradi va mehnat qobiliyatini barqarorlashtiradi;
- inson kapitalining umumiy samaradorligini oshiradi (1-rasm).



1-rasm. Inson kapitalining tarkibiy tashkil etuvchilari va ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmi²⁰



Madaniy-ijtimoiy kapital inson kapitali tarkibidagi eng murakkab va integrativ element hisoblanib, u shaxsning qadriyatlarini, axloqiy me'yorlari, ijtimoiy munosabatlari, jamoada faol ishtirok etishi hamda korporativ madaniyatga moslashuvi bilan ifodalanadi. Ilmiy adabiyotlarda madaniy-ijtimoiy kapital inson kapitalining iqtisodiy samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholanadi, chunki u professional bilim va salomatlik salohiyatining amaliy natijaga aylanishini ta'minlaydi²¹.

Madaniy-ijtimoiy kapitalning birinchi muhim tarkibiy elementi qadriyatlar va madaniy me'yorlar hisoblanadi. Qadriyatlar jamiyat va tashkilotda qabul qilingan axloqiy standartlar, umumiy xulq-atvor qoidalari va ma'naviy tamoyillarni qamrab oladi²². Ular xodimlarning mehnatga munosabatini, jamoaviy maqsadlarga sadoqatini hamda korporativ ruhini shakllantiradi. Qadriyatlar tizimi mustahkam bo'lgan jamoada inson kapitali ijobiy va ijodiy yo'nalishda rivojlanadi.

Ikkinchi element — ijtimoiy munosabatlar va ishonch. Ijtimoiy munosabatlar xodimlar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik va jamoaviy qaror qabul qilish mexanizmlarini ta'minlaydi. Ishonch darajasi yuqori bo'lgan tashkilotlarda axloqiy-ruhiy iqlim barqaror bo'ladi, ichki ziddiyatlar kamayadi va inson kapitali samarali faoliyat ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy ishonch va hamkorlik madaniy-ijtimoiy kapitalning asosiy ustunlaridan biri sifatida e'tirof etilgan²³.

Uchinchi tarkibiy element — kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlardir. Kommunikatsiya tizimi xodimlar o'rtasida bilim va tajriba almashish, korporativ qadriyatlarni tarqatish va innovasion g'oyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Rivojlangan ijtimoiy tarmoqlarga ega tashkilotlarda madaniy-ijtimoiy kapital yuqori bo'lib, bu holat professional kapitalning yanada samarali qo'llanilishiga sharoit yaratadi.

To'rtinchi element sifatida jamoaviy ishtirok va ijtimoiy mas'uliyatni ko'rsatish mumkin. Jamoaviy ishtirok xodimlarning tashkilot hayotida faol qatnashishi, umumiy maqsadlarga daxldorlik hissini anglashi va korporativ qarorlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyati bilan bog'liq. Ijtimoiy mas'uliyat esa inson kapitalining jamiyat va tashkilot oldidagi ma'naviy javobgarligini ifodalaydi. Bu elementlar inson kapitalining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

Bu elementlar korporativ madaniyatning mazmuniy o'zagini tashkil etib, uning ajralmas tarkibiy qismlari hisoblanadi. Korporativ madaniyat aynan ushbu elementlar orqali tashkilotda hayotga tatbiq etiladi, ya'ni u faqat rasmiy qoidalar yoki deklarativ tamoyillar yig'indisi emas, balki xodimlarning kundalik xulq-atvori, mehnatga munosabati va jamoaviy o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Qadriyatlar korporativ maqsadlar bilan uyg'unlashgan holda xodimlarning faoliyatini ma'naviy jihatdan yo'naltirsa, ijtimoiy ishonch va kommunikatsiya tizimi korporativ ruhni mustahkamlaydi va jamoada axloqiy-ruhiy barqarorlikni ta'minlaydi. Jamoaviy ishtirok va ijtimoiy mas'uliyat esa korporativ madaniyatni statik holatdan dinamik, rivojlanuvchi tizimga aylantirib, inson kapitalining professional va salomatlik komponentlarini samarali faoliyatga safarbar etadi.

Tashkilot korporativ madaniyati - bu korxona tashkil topgandan boshlab unda ishlovchi xodimlarning shakllangan qadriyatlarini, e'tiqodlari, xulq-atvor normalari, urf-odatlar, umumiy amaliyot va ish uslublarini o'zida jamlagan tizimdir. Korporativ madaniyat xodimlarning o'zaro hamda ishga va mijozlarga bo'lgan munosabatini, kompaniyaning maqsad va vazifalari haqidagi qarshilarini belgilaydi. Zamonaviy tashkilotlar uchun korporativ madaniyat nafaqat ichki muhitni mustahkamlash, balki biznesda muvaffaqiyatga erishishda ham muhim rol o'ynaydi. U kompaniyaning uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishish, samarali boshqaruvni yo'lga qo'yish va bozorda o'z o'rnini mustahkamlash uchun muhim omil hisoblanadi²⁴.

Korporativ madaniyatni shakllantirishdan asosiy maqsad - korxonada xodimlarni boshqarishni takomillashtirish, ularning qabul qilingan qarorlarni bajarishga moyilligini oshirish, jipslashtirish va kompaniyaga sodiqligini ta'minlash orqali yaxshiroq natijalarga erishishdir. Korporativ madaniyat korxona imiji, xodimlar motivatsiyasi va boshqaruv samaradorligini oshirish, yangi xodimlar moslashuvini tezlashtirish, tashkilotlarning jamiyatda va bozorda o'zining munosib o'rinini egallash vazifalarini bajaradi.

Korporativ madaniyat tizimida axloqiy-ruhiy iqlim va ma'naviy muhit tashkilot faoliyatining ichki barqarorligi, xodimlarning jamoadagi hamjihatligi va inson kapitalidan samarali foydalanishni ta'minlovchi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda korporativ madaniyat ko'pincha qadriyatlar, me'yorlar va xulq-atvor qoidalari tizimi sifatida talqin qilinsa-da, ushbu tizimning amalda ishlashi aynan axloqiy-ruhiy iqlim va

21 Лобанов Д. В. Культурная составляющая человеческого капитала // Вестник Санкт-Петербургского университета. Социология. - 2020. - № 3. - С. 45–53.; Богдан С. В. Социокультурный капитал: концептуальное содержание понятия // Вестник Томского государственного университета. - 2012. - № 358. - С. 72–77.

22 Горбунова Н. В. Социальный капитал как форма культурного капитала // Социологические исследования. - 2005. - № 11. - С. 38–44.

23 Горбунова Н. В. Социальный капитал как форма культурного капитала // Социологические исследования. - 2005. - № 11. - С. 38–44.; Шенгелия Т. А. Improving the methodology of measuring social capital in international companies // Экономика и предпринимательство. - 2022. - № 4 (141). - С. 1183–1187.

24 Суюнов Д.Х., Қодиров Т.У., Умарова Р.З. Бошқарув этикаси ва корпоратив маданият. Дарслик: Т.: «Impress media» 2025, -560 бет.



ma'naviy muhit orqali ta'minlanadi²⁵ (1, 2). Axloqiy-ruhiy iqlim jamoada ishonch, adolat, o'zaro hurmat va psixologik xavfsizlik darajasini ifodalab, xodimlarning mehnatga munosabati va ichki motivatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy muhit esa korporativ qadriyatlarni xodimlar ongiga singdirish, jamoaviy maqsadlarga sodiqlikni shakllantirish va korporativ ruhni mustahkamlash funksiyasini bajaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu nuqtai nazardan xulosa qiladigan bo'lsak, korporativ madaniyatda axloqiy-ruhiy iqlim va ma'naviy muhitning asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, ular normativ-tartibga soluvchi funksiyani bajaradi, ya'ni rasmiy qoidalardan tashqari holda xodimlarning xulq-atvorini ma'naviy me'yorlar asosida boshqaradi. Ikkinchidan, axloqiy-ruhiy iqlim integrativ xususiyatga ega bo'lib, turli kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy xususiyatlarga ega xodimlarni yagona korporativ jamoaga birlashtiradi²⁶. Uchinchidan, ma'naviy muhit motivasion funksiyani bajarib, xodimlarning faqat moddiy manfaatlar bilan emas, balki ma'naviy qoniqish va jamoaviy mas'uliyat hissi orqali faoliyat yuritishini ta'minlaydi. To'rtinchidan, axloqiy-ruhiy muhit korporativ madaniyatning barqarorlik va qayta tiklanish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni inqirozli holatlarda jamoani saqlab qolish va inson kapitalining parchalanishini oldini olishga xizmat qiladi²⁷.

Demak, axloqiy-ruhiy iqlim va ma'naviy muhit korporativ madaniyatning qo'shimcha yoki ikkinchi darajali elementi emas, balki uning ichki o'zagi va funksional asosi hisoblanadi. Korporativ madaniyat aynan ushbu muhit orqali real ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga aylanadi, inson kapitalining professional va salomatlik komponentlari esa ma'naviy muhit ta'sirida uyg'un va samarali faoliyat ko'rsatadi.

Korporativ madaniyat tashkilotda shakllangan qadriyatlar, me'yorlar, an'analar va xulq-atvor qoidalarining barqaror tizimi sifatida ta'riflansada, uni shunchaki ichki hujjatlarda qayd etilgan qoidalar majmui sifatida talqin qilish mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Korporativ madaniyatning real mazmuni va hayotiy ahamiyati tashkilotdagi axloqiy-ruhiy iqlim va ma'naviy muhit orqali namoyon bo'ladi. Aynan shu muhit korporativ madaniyatni amaliyotga tatbiq etib, uni xodimlarning kundalik faoliyati, jamoaviy munosabatlari va qaror qabul qilish jarayonlarida ifodalaydi.

Axloqiy-ruhiy iqlim jamoadagi ishonch, adolat, o'zaro hurmat, psixologik xavfsizlik va ochiq muloqot darajasini aks ettiradi. Ma'naviy muhit esa xodimlarning ichki motivatsiyasi, jamoaviy maqsadlarga sodiqligi, korporativ qadriyatlarni qabul qilishi hamda ma'naviy javobgarlik hissini belgilaydi. Ushbu ikki omil korporativ madaniyatning ichki tayanchi bo'lib, inson kapitalining professional va salomatlik komponentlarini samarali faoliyatga yo'naltiradi.

Amaliyotda ma'naviy muhitning buzilishi, odatda, quyidagi tizimli omillar ta'sirida yuzaga keladi:

- rahbariyat tomonidan axloqiy va ma'naviy liderlikning yetarli darajada ta'minlanmasligi;
- adolatli baholash va rag'batlantirish tizimining mavjud emasligi yoki samarasizligi;
- ochiq va samarali korporativ kommunikatsiyaning yetishmasligi;
- korporativ qadriyatlarning formal ravishda qabul qilinishi va amaliyotda qo'llanilmasligi;
- kadrlarni tanlash va lavozimlarga joylashtirish jarayonlarida madaniy va axloqiy mezonlarni inobatga olmaslik.

Shu bilan birga, ushbu omillar orasida eng keng tarqalgan va eng xavfli holat sifatida ayrim xodimlarning egallab turgan lavozimiga nisbatan kasbiy kompetensiyalarining mos kelmasligi hamda shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatidan ustun qo'yish holatlari alohida ajralib turadi. Lavozimiga mos kompetensiyalarga ega bo'lmagan xodimlar qaror qabul qilishda tizimli xatolarga yo'l qo'yadi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaslikka moyil bo'ladi va jamoada salbiy axloqiy namuna shakllantiradi. Ayniqsa, bunday holat rahbarlik lavozimlarida kuzatilganda, uning salbiy ta'siri butun tashkilotga tarqaladi, korporativ ruh susayadi va ishonch muhiti yemiriladi.

Shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatidan ustun qo'yuvchi, korporativ qadriyatlarga zid fikrlaydigan xodimlar jamoada nosog'lom munosabatlarni kuchaytiradi, ichki ixtiloflarni avj oldiradi va korporativ madaniyatni mazmunan zaiflashtirib yuboradi. Natijada inson kapitalining sinergetik samarasi yo'qoladi, jamoaviy hamkorlik zaiflashadi va tashkilotning o'z oldiga qo'yilgan strategik maqsadlarga erishish imkoniyati pasayib ketadi. Hattoki uni barbod bo'lishigacha olib boradi.

Shu nuqtai nazardan inson kapitalidan samarali foydalanish korporativ madaniyatni mustahkamlash, axloqiy-ruhiy iqlim va ma'naviy muhitni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir (2-rasm).

Bunda tashkilotlar quyidagi strategik yo'nalishlarga ustuvor ahamiyat qaratishi lozim:

- korporativ qadriyatlarni ma'naviy me'yorlar bilan uyg'unlashtirish;

25 Шейн Э. Х. Организационная культура и лидерство. - СПб.: Питер, 2012. - 336 с.; Денисон Д. Корпоративная культура и эффективность организации. - М.: Альпина Бизнес Букс, 2006. — 320 с.

26 Хофстеде Г. Культуры и организации: программирование человеческого разума. - СПб.Питер, 2011. - 416 с.

27 Кузнецова Н. В. Нравственно-психологический климат как фактор развития корпоративной культуры // Социологические исследования. - 2018.- № 6. - С. 84–92.



- rahbarlarning axloqiy va ma'naviy liderlik salohiyatini oshirish;
 - kompetensiyaga asoslangan kadrlar siyosatini shakllantirish;
 - ochiq, ishonchli va psixologik jihatdan xavfsiz ish muhitini yaratish;
 jamoaviy mas'uliyat va ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish. Bunday kompleks yondashuv asosida korporativ madaniyat inson kapitalini rivojlantiruvchi, uning samaradorligini oshiruvchi va tashkilotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlovchi strategik resursga aylanadi (2-rasm).



2-rasm. Inson kapitalidan samarali foydalanishda korporativ madaniyat, axloqiy-ruhiy iqlim va ma'naviy muhitning strategik

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inson kapitali korxona va tashkilotlarda avtomatik ravishda iqtisodiy samara beruvchi resurs emas, balki u muayyan axloqiy-ruhiy iqlim va ma'naviy muhit sharoitidagina o'z qudratini to'liq namoyon etadi. Korporativ madaniyat inson kapitali uchun institusional qolip bo'lsa, axloqiy-ruhiy iqlim va ma'naviy muhit uni "ishga tushiruvchi" ichki kuch vazifasini bajaradi. Aynan ma'naviy muhit xodimlarning kasbiy bilim va salomatlik salohiyatini ijtimoiy mas'uliyat, jamoaviy manfaat va korporativ maqsadlar bilan uyg'unlashtiradi. Shu ma'noda inson kapitalini boshqarish, avvalo, ma'naviy muhitni boshqarishni taqozo etadi. Agar tashkilotda ishonch, adolat va ma'naviy javobgarlik tamoyillari ustuvor bo'lsa, inson kapitali ijodiy va barqaror rivojlanish manbaiga aylanadi. Aks holda esa u samarasiz va strategik xavfli omilga aylanishi mumkin. Shu bois axloqiy-ruhiy iqlim va ma'naviy muhit inson kapitalidan samarali foydalanishning nafaqt sharti, balki uning hal qiluvchi natijaviy mezon sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Хофстеде Г. Культуры и организации: программирование человеческого разума. - СПб. Питер, 2011. - 416 с.
2. Кузнецова Н. В. Нравственно-психологический климат как фактор развития корпоративной культуры // Социологические исследования. - 2018.- № 6. - С. 84-92.
3. Шейн Э. Х. Организационная культура и лидерство. - СПб.: Питер, 2012. - 336 с.; Денисон Д. Корпоративная культура и эффективность организации. - М.: Альпина Бизнес Букс, 2006. — 320 с.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ- 60-сонли Фармони.
5. Суёнов Д.Х., Қодиров Т.У., Умарова Р.З. Бошқарув этикаси ва корпоратив маданият. Дарслик: Т.: "Impress media" 2025, -560 бет.
6. Suyunov D.X.: Maxsudov M.: The role of energy in the economic development of Uzbekistan, science and innovation, 1, a4, 145-149, 2022. «Science and innovation»
7. Suyunov D.X., Elmirzayev. S.E.: Korporativ boshqaruv, 2021. 356 бет.



8. Suyunov D.X.: Kenjabayev. A.T.: Ro'ziyev. A.O.: Elektron tijorat. Дарслик. 2023,
9. Suyunov D.X.: Qodirov. T.U.: Ways for a leader to work on speech and improve speaking skills. American journal of pedagogical and educational research, 11, 29-32, 2023.
10. Suyunov D.X., Kaytarov. V.: Problems in the development of remote banking services in commercial banks of Uzbekistan. World economics and finance bulletin, 26, 39-46, 2023. Бабанова Ю.В., Орлов В.М., Антонян Р.С. Гибкие технологии управления предприятием в условиях цифровизации экономики // Известия Волгоградского государственного технического университета. 2018. № 6 (216). С. 61–66.
11. Суюнов Д.Х. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: Академия, 2006. – 116 б.
12. Tricker B. Corporate governance: principles, policies, and practices. 3rd edition, Oxford 2015.- 544 p.
13. Суюнов Д.Х., Хусайнов Ш.А., Хошминов Э.А. Корпоратив бошқарув: муаммолар ва замонавий ечимлар. Монография. BROK CLASS SERVIS" МЧЖ босмахонасида чоп қилинган. Монография. 2021 йил. -207 б.
14. Суюнов Д., Элмирзаев С. Корпоратив бошқарув. "BROK CLASS SERVIS" МЧЖ босмахонасида чоп қилинган. Дарслик. 2021 йил. -448 б.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>